



## 2023-yil yanvar oyi uchun Samarqand viloyatida qurilish ishlari

2023-yilning yanvar oyida Samarqand viloyatida jami **285,7 mlrd. so‘mlik** qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2022-yilning yanvar oyiga nisbatan **57,7 %** ni tashkil etdi.




### 2023-yil yanvar oyida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi foizda



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo‘lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo‘yicha bo‘linadi.



**Ma’lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta’mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## 2023-yil yanvar oyida mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish ishlari, hajmi



**Qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**

2023-yil 1-mart holatiga ko‘ra qurilish sohasida ro‘yxatdan o‘tgan jami korxona va tashkilotlar soni **3,7** mingta, faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni esa, **3,4** mingtani tashkil etib, o‘tgan 2022-yilning mos davriga nisbatan **122** taga kamaygan.

2023-yilning yanvar oyida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fuqarolik obyektlarini qurilish ishlari hajmi **162,2** % ga oshib jami qurilishdagi ulushi **57,9** % ni tashkil qildi. Bu qurilish sohasida korxona va tashkilotlar sonining ko‘payishiga asosiy omil bo‘lib xizmat qildi.

Fuqarolik obyektlarini qurilishi bo‘yicha qurilish ishlarining eng yuqori ulushi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2023-yilning yanvar oyidagi jami qurilish ko‘rsatkichiga nisbatan **79,1** % ni tashkil etdi.




## Samarqand viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalarini soni, birlikda

	holatiga ko‘ra:		o‘tgan yilga nisbatan, (+,-)
	01.02.2022-yil	01.02.2023-yil	
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>3 313</b>	<b>3 435</b>	<b>122</b>
Samarqand sh.	1 135	1 188	53
Kattaqo‘rg‘on sh.	125	135	10
tumanlar:			
Oqdaryo	161	169	8
Bulung‘ur	75	80	5
Jomboy	134	139	5
Ishtixon	141	138	-3
Kattaqo‘rg‘on	137	139	2
Qo‘shrabot	71	85	14
Narpay	87	82	-5
Payariq	276	293	17
Pastdarg‘om	306	320	14
Paxtachi	73	76	3
Samarqand	152	154	2
Nurobod	63	69	6
Urgut	235	222	-13
Toyloq	142	146	4



## Samarqand viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalarining hududlar kesimida ulushi foizda 01.02.2023-yil holatiga



**Ma’lumot uchun:** Viloyatda qurilish korxonalari soni bo‘yicha eng ko‘p ulushga ega bo‘lgan hududlar Samarqand shahri 34,6 %, Payariq 8,5 % va Pastdarg‘om 9,3 % tumanlaridir.

2023-yilning yanvar oyida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **31,5** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022-yilning yanvar oyiga nisbatan **50,2** % ni tashkil qilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **12,3** % ni tahskil qildi.



### Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi, foizda

12,3


14,3



**Ma’lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Toyloq tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **84,9** %), Pastdarg‘om tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **7,6** %), Samarqand shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **3,4** %), va Samarqand tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **0,8** %) tumanlarga to‘g‘ri keldi.



## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, foizda



Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2023-yil yanvar oyida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan ko‘payish kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **63,5 %** bajarilib, 2022-yilning yanvar oyiga nisbatan **3,8 %** punktga ko‘payish kuzatildi.

Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022-yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati **54,9 %** ni tashkil etgan holda **181,3 mlrd. so‘m** miqdorida qayd etildi.

### Kichik korxona va mikrofirmalar


- 2022-yil yanvar oyida
- 2023-yil yanvar oyida

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi **24,2 %** ni tashkil etib, **69,2 mlrd. so‘m** miqdorida qayd etildi. 2022-yilning yanvar oyiga nisbatan kamayish kuzatilib, **73,6 %** ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi, foizda

mlrd. so'm



■ 2022-yil yanvar oyida ■ 2023-yil yanvar oyida ■ 2022-yil yanvar oyida ■ 2023-yil yanvar oyida

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **10,5** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati 2022-yilning yanvar-yanvar oylariga nisbatan **56,9** % ni tashkil qilib, jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **3,7** % ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **275,2** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **91,1** % ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **96,3** % ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, foizda

2023-yil  
yanvar oyida



davlat mulki

nodavlat mulk

2023-yil  
yanvar oyida

**Samarqand viloyatida qurilish ishlari**



## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qrollantirish ishlari ulushi

2023-yil yanvar oyida

70,9 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **70,9** % ini yoki **202,7** mlrd. so'mni tashkil etgan.

16,0 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **32,5** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi, jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **16,0** % ini tashkil etdi.

50,3 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **101,9** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **50,3** % ini tashkil etdi.

33,7 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **68,3** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **33,7** % ini tashkil etdi.



**Hududlar kesimida qurilish ishlari  
2023-yil yanvar oyida**

	<b>qurilish ishlari hajmi mlrd. so‘mda</b>	<b>o‘sish sur’ati, foizda</b>	<b>umumiylajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari mlrd. so‘mda</b>
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>285,7</b>	<b>57,7</b>	<b>202,7</b>
Samarqand sh.	63,5	42,8	45,1
Kattaqo‘rg‘on sh.	6,4	77,9	4,5
tumanlar:			
Oqdaryo	24,0	61,3	16,9
Bulung‘ur	12,4	92,7	8,8
Jomboy	14,8	63,2	10,5
Ishtixon	12,3	52,6	8,8
Kattaqo‘rg‘on	8,5	57,7	6,0
Qo‘srbabot	7,4	66,3	5,3
Narpay	8,3	57,2	5,9
Payariq	26,6	83,5	18,9
Pastdarg‘om	12,8	52,7	9,1
Paxtachi	9,1	81,7	6,4
Samarqand	19,4	84,5	13,8
Nurobod	5,2	91,0	3,7
Urgut	16,4	56,8	11,6
Toyloq	38,6	52,3	27,4

\*Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo’shgan holda



## Samarqand viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, foizda

2023-yil yanvar oyida

2,6




Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

57,9



Fuqarolik obyektlarini  
qurilishi

39,5



Bino va inshootlarni  
qurilishi

2022-yil yanvar oyida

4,3



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

27,7



Fuqarolik obyektlarini  
qurilishi

68,0



Bino va inshootlarni  
qurilishi

**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

2023-yil  
yanvar oyida

Samarqand viloyatida qurilish ishlari

10




## Bino va inshootlar qurilishi

### Ulushi, foizda

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **0,5** % ni tashkil etib, 2022-yilning yanvar oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **6,6** % punktga kamayish kuzatildi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulushi 2022-yilning yanvar oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **28,8** % punktga kamayib, **38,2** % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2022-yilning yanvar oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **35,4** % punktga ko'payib **61,3** % ni tashkil etdi.






## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

### Ulushi, foizda

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **20,9** % ni tashkil etdi va 2022-yilning yanvar oyiga nisbatan **10,3** % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **79,1** % ni tashkil etib **9,8** % punktga kamaydi.



2023-yil  
yanvar oyida

Samarqand viloyatida qurilish ishlari


12



## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ulushi, foizda

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida kichik korxona va mikrofirmalar hissasi **97,7 %** ga to‘g‘ri kelib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **7,6 %** punktga ko‘payish kuzatildi.



■ 2022-yil yanvar oyida

■ 2023-yil yanvar oyida



## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023-yil yanvar oyida

### Eng yuqori hajm (mlrd. so‘m)

Samarqand sh.  
63,5


1

2

Toyloq  
38,6

Oqdaryo  
23,9

3



### Eng kichik hajm (mlrd. so‘m)

Nurobod  
5,2

1

2

Kattaqo’rg’on sh  
6,4

Paxtachi  
7,4

3



## SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



**Samarqand viloyati  
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo‘limi**

*Aloqa telefoni: (66) 235-60-82*

2023-yil  
yanvar oyida

**Samarqand viloyatida qurilish ishlari**

**15**